Madaminov Shoxruxbek Ma'rufjon o'g'li	
Chet elda bankrotlik ehtimolini baholash modellari.....	842
Nasiriddinov Bahouddin Nuriddinovich	



O'zbekiston Respublikasi tijorat banklari tomonidan kichik biznes subyektlariga ajratilgan kreditlarning amaliy holati va dinamikasi	847
Irgasheva Nigora Akbarovna	
Jismoniy shaxslar daromadlari tarkibi, va ularni soliqqa tortish masalalari.....	854
Ibragimov Zafar Ismailovich	
Tijorat banklari tomonidan kreditlash amaliyotining rivojlangan xorijiy davlatlar tajribasidan O'zbekistonda foydalanish imkoniyatlari.....	861
Kaxxarov Ulug'bek Xalmatovich	
Milliy iqtisodiyotda ta'lim klasterlarini aniqlash va faoliyatini baholash usullari.....	866
Imamova Nilufar Asamutdinovna	
Перспективы внедрения и развития финансовых технологий в банковской деятельности.....	872
Ражабова Умида Умурзаковна	
Hududlarga davlat budjetidan ijtimoiy sohaga tegishli loyihalarga yo'naltirilgan mablag' tahlili	878
Saparov Elmurod Donabayevich	



HUDUDLARGA DAVLAT BUDJETIDAN IJTIMOIIY SOHAGA TEGISHLI LOYIHALARGA YO'NALTIRILGAN MABLAG' TAHLILI

Saparov Elmurod Donabayevich

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

Mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada davlat budjetidan hududlarga ijtimoiy sohaga tegishli loyihalarni moliyalashtirish jarayoni, mablag'lar taqsimotidagi dinamika, tarkibiy o'zgarishlar va samaradorlik masalalari kompleks tarzda tahlil qilingan. Andijon viloyati misolida ijtimoiy loyihalarning ijrosi, mablag'larni o'zlashtirish darajasi va mavjud muammolar ilmiy asosda o'rganilgan. Tadqiqot natijalari ijtimoiy xarajatlarning inson kapitalini rivojlantirishga ta'sirini kuchaytirish, moliyaviy mablag'larning manzilliligi va samaradorligini oshirishga qaratilgan ilmiy xulosalar bilan boyitilgan.

Kalit so'zlar: davlat budjeti, ijtimoiy xarajatlar, infratuzilma xarajatlari, moliyaviy mablag'lar.

Abstract: This article provides a comprehensive analysis of the financing of social sector projects in the regions through the state budget, focusing on the dynamics of fund allocation, structural changes, and issues of efficiency. Using Andijan region as a case study, the research examines the implementation of social projects, the level of budget fund utilization, and existing challenges. The findings highlight the need to strengthen the impact of social expenditures on human capital development and to improve the targeting and efficiency of financial resource allocation.

Key words: state budget, social expenditures, infrastructure expenditures, financial resources.

Аннотация: В данной статье всесторонне проанализированы процессы финансирования социальных проектов в регионах за счёт государственного бюджета, динамика распределения средств, структурные изменения и вопросы эффективности. На примере Андижанской области изучены реализация социальных проектов, уровень освоения бюджетных средств и существующие проблемы. Полученные результаты позволяют сформировать выводы, направленные на повышение влияния социальных расходов на развитие человеческого капитала, а также на улучшение адресности и эффективности использования финансовых ресурсов.

Ключевые слова: государственный бюджет, социальные расходы, инфраструктурные расходы, финансовые средства.

KIRISH

Ijtimoiy sohani rivojlantirish mamlakatning barqaror iqtisodiy o'sishi va aholi farovonligini oshirishda hal qiluvchi omillardan biri hisoblanadi. Ta'lim, sog'liqni saqlash, ijtimoiy himoya, ichimlik suvi ta'minoti, madaniyat, sport va yoshlar siyosati kabi yo'nalishlar mamlakatning uzoq muddatli taraqqiyotiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Shu bois, mazkur sohalarga davlat budjetidan ajratilayotgan mablag'larning hajmi, tarkibi va ularning hududlar bo'yicha taqsimlanish mexanizmini tahlil qilish juda katta amaliy va ilmiy ahamiyat kasb etadi.

O'zbekistonda ijtimoiy soha xarajatlarning izchil o'sishi kuzatilmoqda. Xususan, ta'lim va sog'liqni saqlash tizimini modernizatsiya qilish, ijtimoiy infratuzilmani yaxshilash, aholiga yaqin va sifatli xizmatlar ko'rsatishni ta'minlash maqsadida yirik davlat dasturlari amalga oshirilmoqda. Shu bilan birga, hududlar o'rtasida ijtimoiy infratuzilmaning rivojlanish darajasi bir xil emasligi budjet mablag'larining qay darajada samarali yo'naltirilayotgani, ularning natijadorligi va ijtimoiy ko'rsatkichlarga ta'sirini chuqur o'rganish zarurligini ko'rsatadi. Ijtimoiy loyihalarni moliyalashtirish samaradorligi nafaqat iqtisodiy ko'rsatkichlarga, balki aholining hayot sifati, ijtimoiy adolatni ta'minlash va inson kapitali rivojiga bevosita ta'sir qiladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Hududlarga davlat budjetidan ijtimoiy sohaga yo'naltiriladigan mablag'larning tahlili mamlakatning ijtimoiy taraqqiyoti, inson kapitali rivoji va hududiy tenglikni ta'minlash masalalarining markazida turadi. Ijtimoiy soha –



ta'lim, sog'liqni saqlash, ijtimoiy himoya, madaniyat, sport va yoshlar siyosati kabi tarmoqlarni o'z ichiga olgan murakkab tizim bo'lib, ularning barchasi aholi farovonligi va iqtisodiy o'sishga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Shu sababli, davlat budjeti orqali ijtimoiy loyihalarni moliyalashtirishning samaradorligi jahon iqtisodiy adabiyotida ham, mamlakat olimlari ishlarida ham alohida o'rin egallaydi.

Xorijiy iqtisodchi olimlardan R. Masgreyv (1959) ijtimoiy xarajatlarni davlatning eng muhim funksiyalaridan biri sifatida baholab, ular iqtisodiy tenglik va aholining bazaviy ehtiyojlarini ta'minlashda hal qiluvchi ahamiyatga ega ekanini ta'kidlagan. Uning fikriga ko'ra, aksariyat ijtimoiy xizmatlar xususiy sektor tomonidan yetarli darajada amalga oshirilmasligi sababli, davlat resurslarni qayta taqsimlash jarayonida asosiy ijrochi bo'lishi lozim. Shu nuqtai nazardan qaralganda, ta'lim, tibbiyot va ijtimoiy infratuzilmaga yo'naltirilgan budjet sarflari inson kapitali sifatini oshirishga xizmat qiladi.

U. Outs (1972) ijtimoiy xizmatlarni mahalliy darajada tashkil etishning afzalliklarini asoslab, mahalliy hukumatlar aholi ehtiyojlarini markazga nisbatan yaxshiroq bilishini va ijtimoiy loyihalarning samaradorligini oshirish imkoniyatiga ega ekanini ilmiy jihatdan isbotlagan. Uning fikrlariga ko'ra, ijtimoiy infratuzilmaga sarflarning hududiy darajada samarali boshqarilishi fiskal desentralizatsiyaning muvaffaqiyatli amalga oshishiga bog'liq.

T. Devarajan va hammualliflarining (1996) empirik tadqiqotlari ijtimoiy va infratuzilmaviy xarajatlar uzoq muddatli iqtisodiy o'sishga kuchli ijobiy ta'sir ko'rsatishini ko'rsatadi. Mualliflar ta'kidlaganidek, davlat budjeti tarkibida ijtimoiy sarflar ulushining oshishi mamlakatning inson kapitali darajasini yaxshilaydi, ishlab chiqarish samaradorligini oshiradi va ishchi kuchining bilim hamda sog'liq salohiyatini mustahkamlaydi.

Jahon banki (2020-2023) va OECD hisobotlarida ijtimoiy xarajatlar hududlar o'rtasidagi ijtimoiy disbalansni kamaytirishda va barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlashda asosiy instrument sifatida qayd etilgan. Xususan, ta'lim va sog'liqni saqlash infratuzilmasini rivojlantirish, ijtimoiy himoya dasturlari samaradorligini oshirish va aholining sifatli ijtimoiy xizmatlarga bo'lgan talabini qondirish budjet siyosatining ustuvor yo'nalishi ekani ta'kidlanadi.

Indoneziya va Ruminiya kabi rivojlanayotgan mamlakatlar tajribasi bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar mahalliy budjetlardan ijtimoiy infratuzilmaga yo'naltirilgan sarflar hududiy iqtisodiy faollikni oshirishga, investitsiya jozibadorligini kuchaytirishga va ishsizlikni kamaytirishga sezilarli darajada yordam berishini ko'rsatgan.

Mahalliy olimlar ishlarida ham ijtimoiy soha xarajatlarining ahamiyati keng yoritib berilgan. J. Abdumalikov (2021) ijtimoiy soha xarajatlarining inson kapitali rivojlanishi va ijtimoiy tenglikni ta'minlashdagi o'rnini ilmiy asosda yoritgan. A. Xamidov (2020) hududiy infratuzilmaning sifatini oshirish uchun ijtimoiy xarajatlarning yetarli va maqsadli yo'naltirilishini muhim deb hisoblaydi. Iqtisodiy tadqiqotlar markazi (CERR) va Iqtisodiy tadqiqotlar instituti hisobotlarida ta'lim, tibbiyot va ijtimoiy xizmatlarga sarflar o'sib borayotgani, ammo ularning hududlar kesimida samaradorligi turlicha ekani qayd etilgan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqotda davlat budjetidan hududlarga yo'naltirilayotgan ijtimoiy soha xarajatlarining hajmi, dinamikasi, tarkibiy xususiyatlari va ularning hududiy rivojlanish ko'rsatkichlariga ta'sirini kompleks o'rganish maqsadida turli metodologik yondashuvlar qo'llanildi. Tahliliy yondashuv, dinamik tahlil usuli, qiyosiy tahlil hamda iqtisodiy-statistik tahlil usullaridan keng foydalangan holda tadqiqot natijalarining ilmiy asoslangan va ishonchligini ta'minlashga xarakat qilindi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Musgrave o'zining tadqiqotlarida davlat moliyasining uch asosiy funksiyasini belgilaydi: resurslarni taqsimlash, daromadlarni qayta taqsimlash va makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlash. Uning ta'kidlashicha, ijtimoiy dasturlarni moliyalashtirish qayta taqsimlash funksiyasining markazida turadi. Shu orqali davlat ijtimoiy tenglikni kuchaytirib, iqtisodiy o'sish uchun zarur shart-sharoit yaratadi.

Oatesning ta'kidlashicha, hududiy moliyaviy siyosat nazariy jihatdan asoslanadi va mahalliy hokimiyatlarning ijtimoiy dasturlarni moliyalashtirishdagi afzalliklarini ko'rsatadi. Uning fikricha, mahalliy budjetlar aholining real ehtiyojlarini yaxshiroq biladi va resurslarni samaraliroq taqsimlaydi.

Stiglitz fikricha, davlatning ijtimoiy yo'naltirilgan xarajatlari nafaqat ijtimoiy tenglikni ta'minlash, balki iqtisodiy o'sish uchun ham muhimdir. Unga ko'ra, ta'lim va sog'liqni saqlashga mablag' ajratish inson kapitali rivojlanishini ta'minlaydi hamda hududlararo iqtisodiy farqlarni kamaytiradi.

Ijtimoiy xarajatlar tarkibiga ta'lim, sog'liqni saqlash, madaniyat va sport, fan, ijtimoiy himoya xarajatlari kiradi. 2020-yildan boshlab, aholining bandlik darajasini oshirish, uy-joy bilan ta'minlash dasturlarini moliyaviy ta'minlash xarajatlari va Pensiya jamg'armasiga transfertlar ham qo'shilgan.



1-jadval. O'zbekiston Respublikasi davlat budjetidan ijtimoiy xarajatlarining tarkibiy tuzilishi

Xarajatlar	Yillar						
	2018	2019	2020	2021	2022	2023	2024
Ijtimoiy xarajatlar	42883,3	63542,4	74231,8	92013,6	117691,9	137246,8	152347,6
Ta'lim	20721,1	33536,1	29961,1	39640,8	50271,3	61220,3	71240,5
Sog'liqni saqlash	9408,4	14977,4	19397,2	23316,8	27288,3	31066,6	36036,4
Madaniyat va sport	1345,5	2417,3	2340,7	3609,5	4289,6	5330,2	5970,8
Fan	434,4	662,4	823,8	1081,1	1447,1	1774,1	1967,7
Ijtimoiy himoya xarajatlari	3242,1	4740,3	8190,9	10880,3	19397,1	19209,7	15422,7
Bandlik darajasi oshirish		1192	1305	800,1	706,6	1709,2	1254
Pyensiya jamg'armasiga transfert			9117	10744,2	11092	13797,5	16270,6
Uy joy uchun subsidiyalar		4125,7	1938,2	597,5	1010,8	1100,7	1410,4


O'zbekiston Respublikasi budjetidan ta'lim uchun qilingan xarajatlar miqdori 2018-yilda 20 721,1 mlrd so'mni tashkil qilgan bo'lsa, 2019-yilda 33 536,1 mlrd so'mga yetib, taxminan 12 000 mlrd so'mga oshgan. Bundan tashqari, ushbu ko'rsatkich 2020-yilda 29 961,1 mlrd so'm, 2021-yilda 39 640,8 mlrd so'm, 2022-yilda 50 271,3 mlrd so'm, 2023-yilda 61 220,3 mlrd so'm, 2024-yilda esa 71 240,5 mlrd so'mni tashkil etgan va yillar bo'yicha barqaror o'sish tendensiyasini namoyish etgan. Ushbu miqdor 2018-yilga nisbatan 2024-yilda 3,5 barobarga oshgan bo'lib, aholining o'sish tendensiyalari hamda hukumatning aholini ijtimoiy himoya qilishga qaratilgan chora-tadbirlarining kengayganini ta'kidlash mumkin.

Keyingi xarajat turi bo'yicha sog'liqni saqlash tizimi xarajatlari ham yuqori ulushga ega. Ushbu xarajatlar miqdori 2018-yilda 9 408,4 mlrd so'mni tashkil qilgan bo'lsa, 2019-yilda 14 977,4 mlrd so'mga yetib, o'tgan yilga nisbatan taxminan 5 500 mlrd so'mga oshgan. Keyingi yillarda ushbu xarajatlar mos ravishda 2020 -yilda 19 397,2 mlrd so'm, 2021-yilda 23 316,8 mlrd so'm, 2022-yilda 27 288,3 mlrd so'm, 2023-yilda 31 066,6 mlrd so'm, 2024-yilda esa 36 036,4 mlrd so'mni tashkil etgan. Sog'liqni saqlash xarajatlari 2024-yilda 2018-yilga nisbatan 4 barobarga oshgan. Shuningdek, ushbu xarajatlarning oshishi aholining sifatli tibbiyot xizmatlari bilan ta'minlanishini ko'zlagan.

Bundan tashqari, aholiga ko'rsatilayotgan tibbiy xizmatlar sifatini oshirish, sog'liqni saqlash tizimida amalga oshirilayotgan islohotlarni izchil davom ettirish, budjet mablag'laridan samarali foydalanish hamda davlat tibbiy sug'urtasi mexanizmlarini respublikaning boshqa hududlarida joriy etish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 5-sentyabrdagi "Davlat tibbiy sug'urtasi mexanizmlarini joriy etishga oid chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-311-son qarori qabul qilingan. Bunda davlat tibbiy sug'urtasi doirasida bepul tibbiy xizmatlar ko'rsatish va dori vositalarini taqdim etish Davlat budjetiga to'lanadigan soliqlar hisobidan amalga oshirilishi belgilab qo'yilgan.

Aholini davlat budjeti hisobidan uy-joy sotib olish uchun moliyaviy qo'llab-quvvatlash maqsadida 2023-yilda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 13-apreldagi "2023-yilda bozor tamoyillariga asoslangan ipoteka kreditlari orqali aholini uy-joy bilan ta'minlash dasturini amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-51-son farmoniga asosan 30 000 nafar fuqarolarga subsidiya limitlari ajratilishi belgilangan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-son farmoni bilan tasdiqlangan strategiyada davlatimiz amalga oshirgan taraqqiyot natijalari tahlil qilinib, so'nggi davrlarda "Inson qadri uchun" tamoyili asosida aholi farovonligini yanada oshirish, iqtisodiyot tarmoqlarini modernizatsiya qilish va tadbirkorlikni jadal rivojlantirish, inson huquqlari va manfaatlarini ta'minlash hamda faol fuqarolik jamiyatini shakllantirishga qaratilgan islohotlarning ustuvor yo'nalishlari belgilangan.



1-rasm. Davlat-xususiy sheriklik asosida tashkil etilgan maktabgacha ta'lim muassasalariga ajratilgan budget subsidiyalari miqdori dinamikasi

Davlat-xususiy sheriklik asosida tashkil etilgan maktabgacha ta'lim muassasalariga ajratilgan budget subsidiyalari 2020-yilda 313,3 mlrd.so'mni tashkil etgan bo'lsa, ushbu ko'rsatkich 2021-yilda 1301,8 mlrd. so'mga yetgan. Hamda o'tgan yilga nisbatan taxminan 4 barobar oshgan. 2022-yilga kelib ushbu xarajatlari 2 371,4 mlrd.so'mni tashkil qilgan va o'tgan yilga nisbatan 2 barobargacha o'shgan bo'lsa, 2020-yilga nisbatan 8 barobar oshgan. Ushbu ko'rsatkich 2023-yilda 2744,8 mlrd.so'mni tashkil qilgan bo'lsa, 2022-yilga nisbatan 400 mlrd.so'mga oshgan. 2024-yilda bolalarni maktabgacha ta'lim bilan qamrovini 75 foizgacha oshirishni hisobga olgan holda maktabgacha ta'lim xarajatlari rejalashtirilgan. 2025-yil yakuniga kelib, 6 yoshli bolalarni maktabgacha ta'lim tizimi bilan to'liq qamrovini ta'minlash va bolalarni maktabgacha ta'lim qamrovini 80 foizgacha oshirish ko'zda tutilgan.

2-jadval. 2020-2024-yillarda Andijon viloyatiga ijtimoiy tadbirlar uchun yo'naltirilgan mablag'lar prognoz ko'rsatkichlari hamda ijrosi

T/r	Dastur/topshiriq nomi	Reja	Ijro	O'zlashtirish holati	
				Farqi	Foizi
1	Tashabbusli budget va Mahalla budjeti	1 476 924	1 017 062	459 862	69%
2	Investisiya dasturi doirasida kapital ta'mirlash, rekonstruksiya va qurilish	1 853 342	1 592 694	260 648	86%
3	Uy-joy sotib olish yoki yakka tartibdagi uy-joylarni qurish	4 160 346	3 177 892	982 455	76%
4	Ijtimoiy soha Dastur xarajatlari	1 736 051	1 549 833	186 218	89%
	Jami mablag'lar miqdori	9 226 663	7 337 481	1 889 182	80%

Hududlarning ijtimoiy rivojlantirish masalalari bo'yicha belgilangan tartibda mahalliy va respublika budjeti hisobidan mablag'lar ajratilishi rejalashtirilgan bo'lib, moliyalashtirish asoslari sifatida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari va qarorlari, shuningdek tegishli vakolatli organlarning qaror va farmonlarida belgilangan hududlarning ijtimoiy rivojlantirish loyihalari hisoblanadi. Bunda Andijon viloyatining 2020-2024-yillar oralig'ida rejalashtirilgan mablag'lari va ularning ijrosi to'g'risidagi ma'lumotlar tahlil qilingan bo'lib, tashabbusli budget loyihasi bo'yicha jami 1 476 924 ming so'mlik mablag' ajratilishi rejalashtirilgan bo'lsa, 1 017 062 ming so'm mablag' ijrosi amalga oshirilgan. O'zlashtirilmagan mablag' miqdori 459 862 ming so'mni tashkil etadi.

Shuningdek, investisiya dasturi doirasida ijtimoiy obyektlarni kapital ta'mirlash, rekonstruksiya va qurilish bo'yicha 2020-2024-yillar uchun jami 1 853 342 ming so'm mablag' moliyalashtirish rejalashtirilgan, shundan 1 592 694 ming so'm mablag' moliyalashtirilgan. Uy-joy sotib olish yoki yakka tartibdagi uy-joylarni qurish bo'yicha 4 160 346 ming so'm mablag' ajratilishi rejalashtirilgan hamda 3 177 892 ming so'm moliyalashtirilgan.



Aholini uy-joy bilan ta'minlash dasturi doirasida subsidiya va tijorat banklariga kredit resurslarini joylashtirish bo'yicha mos ravishda 635 400 ming so'm va 3 524 946 ming so'm moliyalashtirish rejalashtirilgan bo'lib, 495 796 ming so'm va 2 682 096 ming so'mlik ijrosi ta'minlangan.

Ijtimoiy soha bo'yicha nodavlat bog'chalarga budjet subsidiyalari ajratish, DXSH asosida talabalar turar joylarini barpo etish, Kasaba uyushmalari tasarrufidagi sanatoriylar va bolalar oromgohlarini ta'mirlash bo'yicha jami 1 736 051 ming so'm mablag' ajratilishi rejalashtirilgan bo'lib, shundan 1 549 833 ming so'm moliyalashtirilgan.

Ushbu loyihalar "O'zbekiston-2030" strategiyasida belgilangan vazifalarni amalga oshirish bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 26-dekabrda PQ-454-son qaroriga asosan aniq maqsadlar va vazifalar bilan belgilangan. Bundan ko'zlangan maqsad hududlarda, ayniqsa mahallalarda ijtimoiy va ishlab chiqarish infratuzilmasini yanada rivojlantirish, aholining turmush darajasini oshirish hamda tadbirkorlar uchun qulay investisiya muhitini yaratishdan iborat.

Fikrimizcha, amaldagi ijtimoiy soha bo'yicha infratuzilmani shakllantirish va yaxshilash aholining turmush darajasini yuksaltirish, ijtimoiy xizmatlarni ta'minlashda miqdor bilan birga sifatni ham takomillashtirishni nazarda tutadi. Ushbu loyihalar davlat budjeti va mahalliy budjet mablag'lari hisobidan amalga oshirilmoqda. Shuningdek, ushbu mablag'larning samaradorligi, manzilligi hamda maqsadga muvofiqligi bo'yicha muntazam nazoratni ta'minlash maqsadga muvofiqdir.

XULOSA VA TAKLFLAR

Tahlillar asosida xulosalar shakllantirildi. Birinchi navbatda, ijtimoiy sohaga ajratilayotgan davlat budjeti xarajatlari uzluksiz o'sish tendensiyasiga ega ekani aniqlandi. Xususan, 2018-2024-yillar davomida ta'lim xarajatlari 3,5 barobarga, sog'liqni saqlash xarajatlari esa 4 barobarga oshgani ijtimoiy infratuzilmani modernizatsiya qilish va rivojlantirishga davlat tomonidan e'tibor kuchayganini ko'rsatadi.

Tadqiqotlar ko'rsatishicha, ijtimoiy xarajatlar inson kapitali rivojlanishiga kuchli ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda. Ta'lim va sog'liqni saqlashga yo'naltirilgan investisiyalar aholining salomatlik darajasini yaxshilaydi, mehnat bozorida faol ishtirokini oshiradi, ishlab chiqarish samaradorligini kuchaytiradi va ijtimoiy tenglikni ta'minlaydi.

Hududlar kesimidagi tahlil ijtimoiy xarajatlar taqsimotida muayyan nomutanosibliklar mavjudligini ko'rsatdi. Bu holat hududlarning resurs bazasi, aholi soni, infratuzilma holati va mahalliy budjet imkoniyatlarining farqlanishi bilan bog'liq bo'lib, kam qamrovli hududlarda ijtimoiy infratuzilmani kuchaytirish va moliyalashtirishni kengaytirish zarurligini anglatadi.

Andijon viloyati misolida olib borilgan tahlillar shuni ko'rsatdiki, umumiy ijro darajasi taxminan 80 foiz bo'lsa-da, ayrim yo'nalishlarda mablag'larni o'zlashtirish past darajada qolmoqda. Xususan, tashabbusli budjet loyihalari va uy-joy dasturlarida o'zlashtirilmagan mablag'lar salmog'i yuqori bo'lib, moliyalashtirish mexanizmlarini soddalashtirish, nazorat tizimini kuchaytirish va amaliy jarayonlarni optimallashtirish talab etiladi.

Davlat-xususiy sheriklik mexanizmlari ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirishda samarali instrument ekani aniqlandi. Maktabgacha ta'lim muassasalariga berilayotgan subsidiyalarning 2020-2024-yillarda 8 barobarga oshgani bu yo'nalishning yuqori natija berayotganini tasdiqlaydi.

Shu bilan birga, davlat budjeti orqali amalga oshirilayotgan ijtimoiy loyihalar aholini uy-joy bilan ta'minlash, ta'lim va tibbiy xizmatlar sifatini yaxshilash, kam ta'minlangan qatlamlarni qo'llab-quvvatlash va mintaqaviy rivojlanishni muvofiqlashtirishda strategik ahamiyatga ega ekani ta'kidlandi.

Foydalangan adabiyotlar ro'yxati

1. Musgrave, R. A. (1959). *The Theory of Public Finance*. New York: McGraw-Hill.
2. Oates, W. E. (1972). *Fiscal Federalism*. New York: Harcourt Brace Jovanovich.
3. Stiglitz, J. E. (1988, 2000). *Economics of the Public Sector*. New York: W.W. Norton & Company.
4. Devarajan, S., Swaroop, V., & Zou, H. (1996). The composition of public expenditure and economic growth. *Journal of Monetary Economics*, 37(2), 313–344.
5. World Bank. (2020–2023). *Public Expenditure Review Reports*. Washington, DC: World Bank Publications.
6. OECD. (2021–2022). *Social Expenditure Database (SOCX)*. OECD Publishing.
7. Hendayana, R., & Nugraha, R. (2021). Local government spending on social infrastructure and regional development. *Asian Economic Journal*, 35(3), 289–310.
8. Bilan, I., et al. (2019). Public expenditure and regional inequalities in EU countries. *Economic Research – Ekonomika Istraživanja*, 32(1), 1231–1248.
9. Abdumalikov, J. (2021). Social expenditures and human capital development in Uzbekistan. *Uzbek Journal of Economics*, 3(1), 45–56.
10. Khamidov, A. (2020). Regional economic development and social infrastructure. *Economics and Education*, 2(4), 77–85.



11. Center for Economic Research and Reforms (CERR). (2021-2024). Social Spending and Budget Transparency Reports. Tashkent.
12. Institute for Economic Research. (2023). Assessment of Social Infrastructure Development in Uzbekistan. Tashkent: IER Publications.
13. Usmonkhojaeva, M. (2022). Budget financing of social services and its impact on human capital. Scientific Bulletin of Economics, 5(3), 98-107.
14. Bobodolov, J. (2019). Local budget revenues and their role in regional social development. Regional Economy Journal, 4(2), 55-63.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 7

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>